

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ
САМАРКАНДСКОГО СОГДА 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрат о'g'li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF
UZBEKISTAN 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH
USULLARI VA AFZALLIKLARI 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDА O'RGANISH USULLARI	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI O'QITISH TARIXI	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIJ TA'MINOTI	316-322

09.00.00 –Фалсафа фанлари

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi

XOJA AHROR VALIYNING TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA HAMJIHATLIKKA DOIR G'UYALARI – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy, axloqiy, falsafiy g'oyalarining hozirgi davrda barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatli jihatlari o'rganilgan. Mutasavvifning tinchlik, osoyishtalik va hamjihatlikka doir g'oyalarining mazmun mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Naqshbandiya ta'limoti, Xoja Ahror Valiy, mutasavvif, tinchlik, barqarorlik, osoyishtalik, barqaror taraqqiyot, bag'rikenglik.

Rakhmatova Kholidakhon Kholikovna
associate professor of Bukhara state pedagogical institute,
candidate of philosophical sciences

KHOJA AHRAR WALI'S IDEAS ABOUT PEACE, TRANQUILITY AND HARMONY AS A FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abstract. This article examines the actual aspects of the social, moral, philosophical ideological servants of Ahror Vali in the obsession with stability in a coherent era. The essence of Mutasavif's ideas about peace, calmness and warmth is revealed.

Key words: carpenter's doctrine, Khoja Ahror Bali, mutasavif, peace, stability, pacification, oral development, tolerance.

Рахматова Холидахон Холиковна
Доцент Бухарского государственного
педагогического института,
кандидат философских наук

ИДЕИ ХОДЖИ АХРАРА ВАЛИ О МИРЕ, СПОКОЙСТВИИ И ГАРМОНИИ – КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: в данной статье исследуются актуальные аспекты социальных, моральных, философских идей Ходжи Ахрора Вали и влияние в обеспечении стабильности в современную эпоху. Раскрыта суть идей мутасаввифа о мире, спокойствии и гармонии.

Ключевые слова: доктрина Накшбанди, Ходжа Ахрор Вали, мутасаввиф, мир, стабильность, умиротворение, устойчивое развитие, толерантность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N20>

Kirish. Tasavvuf ta'limoti uzoq yillar davomida musulmon olami, ya'ni Xuroson, Movarounnahr, arab davlatlarining ko'pchiligida keng ko'lamda tarqalgan mafkura sifatida yashab kelmoqda. Bu ta'limot insonlarni iymon, e'tiqod, sabr – qanoat, mehr – muruvvat, tinchliksevarlik, osoyishtalik, hamjihatlik xislatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Musulmon dunyosining taniqli namoyondalaridan biri Nosiriddin Ubaydulloh bin Mahmud ash – Shoshiy tarixda Xoja Ahror (1404 – 1490) nomi bilan shuhrat qozonganlar. Xoja Ahror haqidagi ma'lumotlar Mir Abdul Avval Nishopuriyning "Masmu'ot", Muhammad Qoziyning "Silsilat al – orifin va taskirat as — siddiqin", Mavlono Shayxning "Manoqibi Xoja Ahror", Faxriddin Ali bin Husayn al – Voiz al – Koshifiyning "Rashahot al – hayot" asarlarida keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xoja Ahror yozib qoldirgan sermazmun asarlar, jumladan, "Risolayi volidiya", "Kalimoti qudsiya", "Fiqaroti Ahroriya", "Malfuzot" da naqshbandiylik tariqatini rivojlantirib, naqshbandiylikka chuqurroq falsafiy tus beradi. Xoja Ahror o'z davrining yirik faylasufi, jamoat arbobi, tariqat peshvosi hisoblanadilar. Hofiz Tanish Al – Buxoriyning "Abdullanoma" asarida Xoja Nosiriddin Ubaydullohga qutblar qutbi va aql egalarning qiblagohi, yo'l ko'rsatuvchilarining qiblasi, deb ta'rif beriladi.(16)

Xoja Ahror naqshbandiylikni kishilarga ijtimoiy jihatdan rohat va xursandchilik bag'ishlashdek olijanoblikni go'zal axloq deb hisoblovchi ko'rsatmasiga qat'iy amal qilar edi. U kishi shuningdek, musulmon bo'lmoq – fuqarolar manfaati uchun yashash ekanligini alohida ta'kidlagan va o'zi shunga izchil rioya qilgan edi. Ulug' so'fiy jumladan shunday deydi: "Agar biz shayxlikni bo'ynimizga olsak edi, unda birorta shayx murid topa olmas edi. Ammo bizga boshqa mas'uliyat, ya'ni musulmonlarni zolimlar zulmidan himoya qilish vazifasi yuklangan. Ana shuni amalga oshirish va musulmonlar manfaatini himoya qilish maqsadida podshohlar bilan muloqotda bo'lib turish, ularning ishonchini qozonish lozim. Agar shayxlar o'z vaqtini ayab, bu ishga e'tibor qilmagan bo'lsalar ham, biz fuqaro uchun o'z vaqtimizni ayamaymiz".(14) Bundan tashqari, Xoja Ahror o'z tasarrufidagi yerlar va mulkdan tushgan daromadlarni xalqqa solingan ortiqcha soliqlarni to'lashga, masjidlar, madrasalar, xonaqolar va boshqa inshootlar qurilishiga sarflar edi. Aytib o'tilganlarning barchasi mehnatkash omma orasida Xoja Ahrorni saxiy, qo'li ochiq, pokiza va adolatparvar shaxs sifatida namoyon etardi. Shu boisdan mehnatkashlar uni "Xojayi Ahror" (hurlar rahnamosi) deb ulug'lashar edilar. Xoja Ahror fuqarolar osoyishtaligi, hunarmandlar va tijorat ahli ishining ravnaqi uchun har qanday bahsli siyosiy muammolarni urushsiz va qon to'kishsiz kelishuv, murosa va tinch – osoyishta hal etishga intilar edi. Xoja Ahror Valiyning tariximiz oldidagi eng katta xizmatlaridan biri xalqni birlashtirib, tinchlik, osoyishtalikka, hamjihatlikka da'vat etganligidir.

Avvalo tinchlik, osoyishtalik va hamjihatlikning jamiyat ravnaqi uchun ahamiyati haqida fikr yuritmoq maqsadga muvofiqdir.

Odatda, tinchlik so'zi kishini bezovta qilmaslikni, holatlarning tinch va osoyishta, urush-janjalsizligini, hayot va turmush tizimini bir me'yorida bo'lishini ifoda etadi. Oilada tinchlik va osoyishtalik hukm sursa, oila bardavom va mustahkam. El-yurtda tinchlik va osoyishtalik davom etsa, mamlakat taraqqiyoti, farovonligi, yurt ahlining turmushi obod bo'ladi. Bularni aks ettiruvchi muqaddas qadriyatlarimiz, milliy urf-odat va rasm-rusumlarimiz, dinimiz bevosita xotirjamlik silsilasiga uzviy bog'liqdir. Xalqimiz tinchlik va osoyishtalikni istab kundalik

hayotida qator diniy va milliy fazilatlarni amalga oshiradi. Jumladan: ular ko'rishganida salom beradi. Bu bir-birlariga tinchlik, omonlik tilash ramzidir.

Muhokama. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi milliy taraqqiyotni ta'minlashda yangicha bosqich bo'ldi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi" [1].

Bir so'z bilan aytganda, insoniyatga, dov-daraxtga, chorva-molga, qurt-qumursqaga havodek zarur bo'layotgan tinchlik-xotirjamlik, osoyishtalikdan ham ziyoda, mo'tabar ne'mat yo'q. Darhaqiqat, Alloh asrasin, oila va yurt notinch bo'lsa, to'y-tomosh, ko'ngilxushlik, hazil-mutoyiba, hayot lazzatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Inson biror luqmani xotirjam yutmaydi, har qanday koshona uy-joy, mol-mulk, bola-chaqa inson tanasiga og'irlik qiladi. Aytishlaricha, notinchlik, urush sababidan oxirgi besh ming yilda uch milliarddan ziyod odam hayotdan ko'z yumgan.

Urushlar sababidan mehr-oqibat, insoniylik unutiladi, har qanday ezgu amallar, ulug' maqsadlar poyoniga yetmaydi. Yer qanchalik keng bo'lishi bilan shunchalar tor va ziq ko'rinishga muhtalo bo'ladi. Demak, xotirjamlik, osoyishtalik ne'matini so'rashda dono xalqimiz nechog'lik to'g'ri va go'zal yo'l tanlagan. Muqaddas dinimiz dasturi bo'lmish Qur'on oyatlarida tinchlik-osoyishtalikka katta e'tibor qaratilib, Alloh taolo: "**Qachon (Biz) insonga (tinchlik, salomatlik, farovonlikni) in'om etsak, u (shukr qilishdan) yuz o'girib, o'z holicha ketur. Qachon unga (xastalik, kambag'allik kabi) biror yomonlik yetsa, noumid bo'lur**" (*Isro, 83*) deb, tinchlik-osoyishtalik to'g'risida marhamat qiladi.

Alloh taolo bandalarini o'zaro ittifoqlikda, ahillikda, tinchlik-omonlikda yashashga da'vat etib: "Agar mo'minlardan ikki toifa o'zaro urushib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!". (*Hujurot, 9*) degan insonparvarlik tamoyilini yaratishga chaqiradi.

Ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda aytilganidek, "Ikki eng aziz ne'mat bor-u, ko'plar buning qadriga yetishmaydi, bular salomatlik va tinchlik-xotirjamlikdir" (*Imom Buxoriy va Imom Termiziy rivoyati*).

Tinchlik qaror topgan yurtda xotirjamlik hukm suradi, farzandlar emin-erkin kamolga erishadi, oqibatda, jamiyatda har tomonlama yuksalish va rivojlanish ro'y beradi. Demak, dunyoda hayotning bir maromda davom etishi, xalqning Haq taolo buyurgan ishlarini mukammal va xotirjam ado etishlari uchun tinchlik va osoyishtalik lozim.

Xoja Ahror Valiy tinchliksevar va sulhparvar siymo sifatida insonlar nafaqat mavjud tinchlikning qadriga yetib, shukrini ado etishlari, balki unga noshukrlik qilib putur yetkazishdan ham saqlanishlari lozim ekanligini o'z rashhalarida ta'kidlaydi. Zero, tinchlik va xotirjamlikning ulug' ne'matligi doimo kundalik xayriyatlarimizning boshida zikr qilinadi

Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarini ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik nisbiy sokinlik, ijtimoiy tizimning normal faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir.

Dunyoga nazar tashlaganimizda urushlar, jangu-jadallar, qarama-qarshiliklar, diniy va irqiy shakldagi qonli to'qnashuvlar insonlar o'rtasida diniy bag'rikenglik yetishmayotganini anglatib turibdi, –deydi **tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Odiljon Ernazarov**. Shu nuqtai nazardan insonlar o'rtasida diniy bag'rikenglikni shakllantirish yuqoridagi kabi urushlar va qarama-qarshiliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy bag'rikengliksiz bilan bir hududda, bir joyda ishlayotgan inson, boshqa bir din vakilining ham siz bilan teng huquqli ekanini tushunish, u bilan fikringiz bir xil bo'lmagan taqdirda ham uning qarashlarini sabr bilan tinglash va hurmat qilishdir. Xoja Ahror Valiyning diniy bag'rikenglik to'g'risidagi qarashlari ham bugungi kun uchun ibratlidir. “Rashahot”da kelitirilishicha, u kishining shogirdlari Sizning tariqingiz yoki tutgan yo'lingiz qanday deb so'raganlarida, u kishi mening tariqim daqiqdur(ya'ni mushkuldir), deganlar. Chunki, men o'z namozimni ado qilish vaqtida, agar kofir inson suvga cho'kayotgan bo'lsa hamki, uni qutqaraman, deganlar. Jamiyatda tenglik g'oyalarining ustuvor bo'lishi va amaliyotda o'z ifodasini topishi ko'zlangan maqsadlarga erishishga, belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mo'ljallarning barcha uchun birdek qadr-qimmat kasb etishiga, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlik, totuvlik, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhi qaror topishiga zamin yaratadi. “Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da ta'kidlanganidek, “Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi” [3:92].

Manbalarda ko'rsatilishicha, Xoja Ahror Valiy nafaqat ezgulikka da'vat etganlar, balki o'zlari ham el-yurtning tinchligi, osoyishtaligi va mehr-muruvvatning betakror timsoli bo'lganlar. “Tasavvuf uldirki, har narsaki, boshingda bo'lsa, qo'ysang va har nimaiki qo'lingda bo'lsa, bersang. Mardlik uldirki, har kim sanga yomonlik qilsa, o'rniga yaxshilik qilsang. Har kim sani noumid qilsa, anga ehson qilsang!”- degan fikrlari Xoja Ahror Valiyning qalblari tasavvufga oshifta bo'lib, tasavvuf deganda bag'rikenglik, yaxshilik, tinchliksevarlikni nazarda tutganligi mutasavvifning bag'rikenglik timsoli ekanligidan dalolat beradi.(14:330). Shuningdek, tinchlik tushunchasi muqaddas Qur'oni Karimning bosh mavzularidan biri hamdir. Alloh taolo bu haqda o'z kalomi sharifida shunday marhamat qiladi: **“Ey, imon keltirgan bandalar! Barchangiz tamomila tinchlik va itoat yo'lga kiringlar!”**.(5) Inson zimmasidagi eng oliy majburiyatni ado etmoqligi uchun unga, albatta, tinch va osuda sharoit zarur. Islom dini tinchlik tushunchasini o'zining bosh g'oyasi va muhim shioriga aylantirgan. “Islom” so'zining o'zi ham arab tilidagi “salam” kalimasidan olingan bo'lib, “tinchlik” degan ma'noni anglatadi. Demak, Islom dini tinchlik va do'stlik dinidir. Tinchliksevarlik esa o'zbek xalqining qadriyati darajasiga ko'tarilgan.

Xoja Ahrorning xalqimiz tarixidagi eng buyuk xizmati tinchlik, ahillik, barqarorlik o'rnatish uchun qilgan xizmatlaridir, hukmdorlarni adolat o'rnatishga undagani va bunga imkon qadar erishganidir. Xoja Ahrorning jamiyatda insonlarning teng huquqliligi tarafdori bo'lganligi, turli ijtimoiy mavqega ega odamlarni bir-biriga yaqinlashtirish, shoh-u darveshni kelishtirish g'oyasining ijobiy tomonlari bugungi kunda demokratik jamiyat qurish jarayonida qo'llash masalasini tahlil etish zarur. Xoja Ahror Valiyning eng olijanob maqsadi xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda mamlakatni boshqarishda hukmdorlarni to'g'ri yo'lga solish, hukmron guruh hamda fuqarolar va podsho orasida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etib, mamlakatda osoyishtalik va barqarorlikni o'rnatishga qaratilgan edi.

Xoja Ahror Valiyning podshohlar bilan ixtilot[1]da bo'lish tadbiri faqat tariqat va davlat o'rtasidagi hamkorlikni emas, balki umuman jamiyatda tinchlik, barqarorlikni ta'minlashni

ko'zda tutgan edi. Xoja Ahror Valiy va undan keyingi naqshbandiya arboblarning podsholar bilan hamkorlik qilishi hukmdorlarga tariqat peshvolarining aql-zakovati, tadbiri, ularning xoriqulodda narsalarga qodir bo'lgan laduniy (botiniy) bilimlaridan mamlakat va xalq manfaatlari uchun foydalanishga yo'l ochib berdi. Demak, Xoja Ahror Valiy aql-zakovatining mahsuli bo'lgan podsholar bilan munosabatda bo'lish yangi siyosati ham tariqat rivojiga, ham mamlakat va xalq manfaatlariga xizmat qilgan.

Xoja Ahror Valiy ochib bergan podsholar bilan ixtilot yo'li tariqat rivoji va obro'-e'tiborining oshishiga olib kelgan hamda hukmdorlarga ijobiy ta'sir o'tkazish, ularning davlatdorlik faoliyatini fuqarolarga nisbatan adolat mezoni asosida nazorat qilish uchun imkoniyat ochib bergan edi. Bu tadbir Xoja Ahror Valiyning diniy-irfoniy faoliyatiga ijtimoiy tus berdi, tariqat arbobini ulkan jamoat arbobiga aylantirdi. Tariqat esa jamiyat va dunyoviy hayot bilan bog'lanib, katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylandi. Podsholar bilan ixtilotda bo'lish tadbiri naqshbandiyaning "suhbat tariqasi" shioridan kelib chiqqan bo'lib, uni rivojlantirdi, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol qatnashish, davlat ishlarida ishtirok etish darajasiga ko'tardi. Xoja Ahror Valiy mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. 1447 yili temuriylar bosh hukmdori Shohrux vafot etadi. 1449 yili esa Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek qatl qilinadi. Shundan so'ng bir necha yil temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boradi. 1451 yili shahzodalardan biri Abu Said Mirzo Toshkentda bo'lib, Xoja Ahror Valiyning o'ziga ma'naviy madadkor deb taniydi va shu yili Mirzo Abdullo bilan bo'lgan jangda qo'li baland kelib, Samarqandni egallaydi hamda Xoja Ahror Valiyning Toshkentdan Samarqandga ko'chirib keladi. Xojaning Samarqandda muqim turishi ana shu 1451 yildan boshlanadi. Uning mamlakatdagi siyosiy jarayonlarida faol ishtiroki esa 1454 yilga oid bo'lib, shu yili Xuroson hokimi Abdulqosim Bobur Samarqandni qamal qilganida Xoja Ahror Valiy shahar himoyachilariga bosh bo'lib, dushmani sulh tuzishga majbur etadi. Shu bilan Xoja Ahror Valiyning shahzodalar orasidagi nizolarni sulh bilan yakunlab, mamlakatda osoyishtalik o'rnatishga qaratilgan siyosiy faoliyati umr bo'yi to'xtamaydi. Uning 1458 yili Shoxruhiyada o'zaro qonli to'qnashuvga tayyor uch hukmdor: Sulton Abu Said (1451-1469) ning o'g'illari Sulton Ahmad mirzo, Umarshayx mirzo va Yunusxon (1462-1487) ning o'g'li Sulton Mahmud orasidagi nizoni sulh bilan bartaraf qilganligi manbalarda ko'p takidlangan.(10,379)

Xoja Ahror Valiyning tinchlik, ahillik va hamjihatlikka oid qarashlari bo'yicha xulosa qilib quyidagilarni qayd etish mumkin:

Naqshbandiya ta'limotida Xoja Ahror Valiy tomonidan ijtimoiy va siyosiy hayotga faol ishtirok etishga islohot boshlandi; Xoja Ahror Valiy tariqat arbobining jamoat arbobi sifatidagi o'rnini naqshbandiya ta'limotida ilk bora ko'rsatib berdi va uning faol inson sifatidagi harakat doirasini kengaytirdi; Xoja Ahror Valiy podsholar madadisiz tariqat faoliyatini davom ettirish mumkin emas, deb hisoblagan. Shuning uchun hukmdorlar bilan yaqinlashish, murosa va hamkorlik qilish tarafdori bo'ldi. Xoja Ahror Valiy tomonidan ishlab chiqilgan yo'l naqshbandiylik ta'limotida burilish yasadi, deyish mumkin; Xoja Ahror Valiyning tashabbusi bilan davlat va din ahli o'rtasidagi muxolifatga barham berildi.

Sayyoramizning turli nuqtalarida nizo va adovatlar o'chog'ini yoqishga, diniy omillarni siyosiyashtirishga urinishlar bo'layotgan hozirgi jarayonda Xoja Ahrorning tinchlik, hamjihatlik, barqarorlik, do'stlik, shafqat va mehr-oqibat muhitini qaror toptirishga doir ezgu da'vatlari ibrat namunasi bo'lib xizmat qilmoqda. Manbalarda ko'rsatilishicha, bu ulug' inson nafaqat ezgulikka da'vat etganlar, balki o'zlari ham el - yurtning tinchligi, osoyishtaligi va mehr

– muruvvatning betakror timsoli bo‘lganlar. Hoja Ahror Valiy axloqiy qarashlarining tub mohiyati quyidagi fikrlarda mujassam, deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi « 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. -400 b.
3. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. / YuNESKO Xalqaro me‘yoriy hujjatlari. – T.: Adolat, 2004. – 92 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning IHT TIVKning «Ta‘lim va ma‘rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l» nomli 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 18.10. 2017.
5. Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007.
6. Каримов Э. Некоторые черты хозяйственной и политической деятельности Ходжа Ахрара // Узбекистан: страницы истории. -Ташкент: 1991. - С.5-7.
7. Mirzo Kenjabek. Hazrati Hoja Ubaydulloh Ahror: “Risolayi volidiyya” nazmiy tarjimasi va sharhi. -Toshkent: Sharq, 2019.
8. Sharipov A.Z. Inson manfaatlarini taminlash va halq bilan muloqot qilish jarayonlarida ijtimoiy hamkorlik. Imom Buxoriy saboqlari. Manaviy-marifiy, ilmiy-adabiy jurnal. №3, 2017– Samarqand, 2017. B.73-76
9. Navro‘zova G.N., Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. “Buxoro” nashriyoti, 2010. 232 b.
10. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot: (Obi Hayot tomchilari). – Tabdil va so‘ng so‘z muallifi M.Hasaniy. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tib-nashr., 2003. 352-bet.
11. Ijtimoiy siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. N.Mahmudov tahriri ostida. Toshkent. Sahnof nashriyoti, 2021. 304 b.
12. Идрис шах. Суфизм. М. 1994.
13. Hoja Ubaydulloh Ahror. Risolai Havroiyya/Tabarruk risolalar. Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, so‘z boshi va izoh mualliflari – M.Hasaniy, B.Umrzoh, H.Amin. – T.: Adolat, 2004. 21-25-betlar.
14. Hoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar/ Tarjimonlar Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq, Hamidulloh Amin. - Toshkent: Adolat, 2004.
15. Raxmatova X.X. The world importance of the teachings of Khoja Ahror Vali. *Academicia aninternational Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal)* 2021, r 1508-1512
16. Ҳофиз Таниш Ал – Бухорий. “Абдуллонома”. 1999 й. 59 – бет.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).